

MADANIYAT VA SAN'AT SOHASIDA ESTETIK TARBIYANING O'RNI**Ortiqboyeva Oqila Shukurjon qizi**O'zbekiston davlar san'at va madaniyat instituti
MSMTEB ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada madaniyat va san'at sohasida estetik tarbiyaning o'rni va ahamiyati xususida batafsil ma'lumot keltirib o'tilgan. Shuningdek, folklor qo'shiqlarining yoshlar tarbiyasi shakllanishida bevosita bog'liqligi hamda estetik tarbiya masalalariga tahliliy yondashuvlar asosida fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so'z: folklor san'ati, estetik tarbiya, san'at, ma'naviy hayot, ta'lim-tarbiya

**РОЛЬ ЭСТЕТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ В СФЕРЕ КУЛЬТУРЫ
И ИСКУССТВА****Ортиқбоева Оқила Шукуржон қизи**Институт искуства и культуры Узбекистана
студентка 2 ступени образования МСМТЭБ

Аннотация: В данной статье представлена подробная информация о роли и значении эстетического воспитания в сфере культуры и искусства. Также высказываются мнения на основе непосредственной значимости фольклорных песен в формировании воспитания молодежи и аналитических подходов к вопросам эстетического воспитания.

Ключевые слова: фольклорное творчество, эстетическое воспитание, искусство, духовная жизнь, воспитание

THE ROLE OF AESTHETIC EDUCATION IN THE FIELD OF CULTURE AND ART

Ortiqboyeva Oqila Shukhurjon qizi

Institute of Art and Culture of Uzbekistan
2nd stage student of MSMTEB education

Abstract: This article provides detailed information about the role and importance of aesthetic education in the field of culture and art. Also, opinions are expressed on the basis of the direct connection of folklore songs in the formation of youth education and analytical approaches to the issues of aesthetic education.

Key word: folklore art, aesthetic education, art, spiritual life, education

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish, yangi O‘zbekistonning yangi tarixini yaratish, moddiy va nomoddiy madaniy meros durdonalarini saqlash va targ‘ib etish, xalq og‘zaki ijodiyoti va havaskorlik san‘atini yanada ommalashtirish, yurtimizning jahon madaniy makoniga faol integratsiyalashuvini ta‘minlash, madaniyat va san‘at sohasini innovatsion rivojlantirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Xususan birinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son qarori bilan O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasi (keyingi o‘rinlarda — Konsepsiya) va uni amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” tasdiqlandi, ikkinchidan, madaniyat va san‘at tashkilotlarining “do‘stlar klublari” faoliyatini yo‘lga qo‘yish orqali ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bo‘yicha mutlaqo yangicha samarali tizim yaratildi, uchinchidan, muzeylar renovatsiya dasturi qabul qilindi, o‘zbek xalqining ko‘hna va betakror san‘ati namunasi bo‘lgan “Xorazm lazgisi” YUNESKOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosining reprezentativ ro‘yxatiga kiritildi, to‘rtinchidan, madaniy meros

obyektlari va san'at ashyolarini restavratsiya qilish bo'yicha milliy maktab, shuningdek, xalq cholg'ulari, milliy raqs, maqom yo'nalishlarida respublika ko'rik-tanlovlari qayta tiklandi, beshinchidan, mamlakatimizda muntazam ravishda o'tkaziladigan Xalqaro maqom san'ati anjumani, Xalqaro baxshichilik san'ati festivali, "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali, "Buyuk ipak yo'li" xalqaro folklor san'ati festivali hamda "Raqs sehri" xalqaro festivali tashkil etilib, o'zbek mumtoz va folklor san'atining noyob namunalari va an'alarini hamda madaniy muloqotni yanada rivojlantirish bo'yicha samarali tizim yo'lga qo'yildi.

Shu bilan birga, Konsepsiyani amalga oshirish, sohada zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, iste'dodli yosh ijodkorlarni izlab topish va qo'llab-quvvatlash, ta'lim muassasalarini musiqa darsliklari, notalar to'plamlari va o'quv-metodik adabiyotlar bilan ta'minlashning yaxlit tizimi yaratilmagan.

Aholi, ayniqsa, olis hududlarda istiqomat qiladigan fuqarolarga madaniy dam olish xizmatlari ko'rsatish darajasini oshirish, buning uchun respublikaning barcha hududlarida teatr, muzey, ko'chma sirk va hayvonot bog'lari faoliyatini doimiy ravishda yo'lga qo'yish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Yuqoridagi vazifalarni samarali amalga oshirish, madaniyat va san'at sohasidagi islohotlarni jadal davom ettirish, madaniyat organlari va muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish, shuningdek, 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining ijrosini ta'minlash maqsadida 2020 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasida madaniyat va san'atni yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar dasturiga muvofiq O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasining 2021 — 2025-yillarga mo'ljallangan maqsadli ko'rsatkichlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlandi.

Vazirlar Mahkamasi Konsepsiyani amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritalari" va chora-tadbirlar dasturlarini qabul qilishda mazkur bandga muvofiq tasdiqlanayotgan maqsadli ko'rsatkichlarning bajarilishini ta'minlash bo'yicha tadbirlarni nazarda tutganki unga ko'ra konsert-tomosha faoliyatini litsenziyalash, litsenziatlarning davlat reyestrini yuritish, ularning faoliyati va erishgan natijalari haqidagi axborotlarni kiritib borish Konsert-tomosha faoliyati ishtirokchilarining yagona onlayn portali orqali amalga oshirilishi, konsert-tomosha tadbiriga bir martalik ruxsatnoma berish uchun undiriladigan yig'im bekor qilinishi, davlat organlari va tashkilotlarining asosiy vazifa va funksiyalaridan kelib chiqib, ularning tashabbuslari bilan o'tkaziladigan ommaviy-madaniy va konsert-tomosha tadbirlari har yili tasdiqlanadigan ommaviy-madaniy va konsert-tomosha tadbirlarining kalendar rejaları O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining kalendar rejalarida nazarda tutilmagan davlat tadbirlarini o'tkazishni nazarda tutuvchi qarorlarida ushbu tadbirlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlar bo'yicha buyurtmachilar hamda ularni moliyalashtirish manbalari ko'rsatilishini nazarda tutadi.

Bundan tashqari hozirgi vaqtda qator mamlakatlarda maktab hamda maktabdan tashqari tashkil topgan o'quv jarayoni, uning shakl va usullari shubhasiz, katta qiziqish uyg'otmoqda. Jahonning ko'pgina mamlakatlarida yosh avlodga musiqiy tarbiya berish ishlari umumdavlat ahamiyatga ega bo'lib, shaxsni shakllantirishning muhim vositasi hisoblanadi. Har bir mamlakatning musiqa tarbiyasi g'oyaviy-siyosiy jihatdan xalqning sotsial tuzumiga xizmat qiladi.

Har bir xalqning maorifida musiqa tarbiyasi metodikasi pedagogikaning didaktik qonuniyatlariga va shu xalqning milliy musiqa madaniyati, tili va madaniy an'analariga asoslanadi. Shu bilan birga musiqa tarbiyasning strukturasi, sistemasi (tizimi) va ilmiy-metodik yutuqlar boshqa millatning ma'rifiy madaniyatiga ham ijobiy ta'sir etadi.

Jamiyatimiz taraqqiyotida ma'naviy va jismoniy sog'lom avlodni tarbiyalash bugungi kunda bizning eng ustuvor vazifalarimizdan biri sanaladi. Zeroki qator aytilgan bu fikrlar zamirida har doimgidek yoshlar turadi, sababi ularning bugungi kundagi olgan ta'lim- tarbiyasi nafaqat o'zlari uchun balki yurtimiz taraqqiyoti uchun eng muhim poydevordir. Hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bejizga "Agar mendan sizni nima qiynaydi" deb so'rasangiz, farzandlarimizning ta'lim va tarbiyasi deb javob beraman" - degan purma'no fikrlari fikrimiz yaqqol dalilidir.

Biz yashab turgan jamiyat taraqqiyotida musiqa va san'atning o'rni beqiyosdir. Har bir millat va elatlarni birlashtiradigan an'analarimizni mustahkamlaydigan ham mana shu hisoblanadi. Har qanday ko'ngilni o'ziga rom eta oladigan, insonlarni qalbiga ezgulik urug'ini ekib boshqa yomon illatlarga qarshi kurashadigan ham musiqa desak mubolag'a emas. Shu o'rinda o'z-o'zidan sezilib turibdiki musiqa san'ati qanchalik beqiyosligi hamda tarbiyaviy jihatdan ham katta ahamyatga ega ekanligini.

Musiqaning inson ruhiyatiga ta'sir qilish borasida keng imkoniyatlar qadimdan oq musiqashunoslar, mutafakkirlar va olimlar diqqatini o'ziga jalb qilgan. Ular musiqa san'atining insonlarni shaxs sifatida shakllanishiga ta'sir qiladigan xususiyatlarini aniqlashga urunishgan. Darhaqiqat jahon fani ravnaqiga ulkan hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimiz komil insonni tarbiyalashda musiqa o'rnini chuqur anglab, shaxs kamolotidagi ahamyatini o'z asarlarida, pedagogik qarashlarida tadqiq qilib bizga beqiyos manbalar qoldirganlar. Buyuk mutaffakirlar Al Forobiy, Abu ali Ibn Sino, Abdulqodir Marog'iy, Sharafiddin ali Yazdiy, Mahmud Qoshg'ariy, Ahmad Yugnakiy, Sadiy Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Kavkabiyy, Darveshali Changiy, Komil Xorazmiy, Alisher Navoiy, Zahriddin Muhammad Bobur kabi allomalarning qator asarlarida keltirilgan musiqaga oid ma'lumotlar bugungi kunda o'z ilmiy, nazariy hamda tarbiyaviy jihatdan yosh avlodni tarbiyalash jarayonida eng dolzarb va eng kerakli maba ekanligini

ko'rishimiz mumkin.

O'ylashimcha musiqa tarbiyasini avvalo oiladan boshlash eng maqul yo'l sanaladi. Sababi shundaki musiqaga qiziqish oiladagi muhitga juda bog'liq. Agar oilada o'zaro san'atga bo'lgan munosabat yuqori ruhda, baland ishtiyoq hamda hurmatda bo'lsa bolada o'z-o'zidan qiziqish, ijtimoiy- psixologik muhit paydo bo'ladi.

Ma'lumki yaxshi oilaviy muhitda tarbiyalangan bolaning hayot haqidagi turli voqea-hodisalar, urf-odat, madaniyat va san'atga oid taassurotlari ko'pincha ijobiy kechadi. Oiladagi birlikda televizor ko'rish, konsert tomosha qilish, teatr tomosha qilish va o'z taassurotlarini o'rtoqlashish kabi muloqotlar bolalar dunyoqarashini o'stirib, hayotiy voqealarni aks ettiruvchi adabiyot, san'at musiqani mohiyatini tushunish va badiiy idrok etishga olib keladi.

Xususan eng avvalo musiqaga oilaviy muhiti yiroq bo'lgan bolalarni qiziqitish uchun ham va qiziqqan bolalarni yanada dunyoqarashini oshirish uchun ham o'rta ta'lim maktablarida, Maktabgacha ta'lim muassalarida san'at ustalari bilan ijodiy uchrashuvlar ko'ngilochar tadbirlarni tashkillashtirish ularning musiqa haqidagi tasavvurlarini kengaytirish, o'quvchi yoshlarning qiziqishini o'stirib, bo'sh vaqtlarini behuda sarflamasliklarini oldini olishimiz mumkin. Bejizga davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan: "Besh muhim tashabbus"ni joriy qilmaganlar. Aynan shu besh tashabbusimizning birinchi yo'nalishi musiqa va san'atga bag'ishlangan. Mana shundan ham ko'rinib turibdiki musiqaning yosh avlod tarbiyasida o'rni kattaligini.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nishonova N., Risqulova K. Sogʻlom turmush madaniyati. –T.: Fan va texnologiya, 2008. -127 .
2. Saʼdullayev N., Aminjonova M. Madaniyatimiz tarixidan lavhalar. –T.: Oʻzbekiston, 1998. -85.
3. Qoraboyev U., Soatov Gʻ. Oʻzbekiston madaniyati. –T.: TAFAKKUR-BOʻSTONI, 2011. -193 .
4. Murodov M., Qoraboyev U., Rustamova R. Etnomadaniyat. –T.: Adolat, 2003.